

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14601966>

**NUTQIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR BILAN LOGOPEDIK
TEKSHIRUVNI AMALGA OSHIRISH. INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOLALAR NUTQINI SHAKLLANTIRISH**

Ro‘ziyeva Nozima

Andijon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika:
logopediya yo‘nalish 2-kurs talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarning nutq hosil bo‘lish modeli va bu jarayonda boalar nutqidagi o‘zgarishlar, shu bilan birgalikda og‘ir nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar bilan korreksion ishlarni amalga oshirish va ularni nutqini yangicha metoda va vositalar orqali yanada takomillashtirish shu bilan birgalikda innovatsion texnologiya asosida bolalarga turli xil o‘yin va multimedialar orqali nutqining leksik va grammatik jihatdan rivojlantirish haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** Nutq shakllanishi, artikulatsiya, og‘ir nutq nuqsonlar, logopedic tasir, rivojlantirish, tuzatish, tarbiyalash, metod, vosita, innovatsiya.*

Bola rivojlanar ekan uning nutqi, taffakuri, bilish jarayonlari ham shakllanib boradi. Bola ona qornidaligi paytidayoq nutq a‘zolari aparati rivojlanib boradi. Tug‘ilgandan keyin ham nutq hosil bo‘lish jarayoni birin ketinlikda amalga oshadi. Yangi chaqaloqda qanday nutq rivojlanadi degan savol tug‘iladi albatta. Bolaning chaqaloq paytidagi yig‘i va chinqirig‘i unda ilk nutq hosil bo‘lganidan hosil bo‘lganidan darak beradi.

A.N.Leontev bola nutqini shakllanishini 4 davrga ajratadi:

1. Tayyorgarlik davri – 1 yoshgacha
2. Bog‘chagacha bo‘lgan davr – 3 yoshgacha

3. Maktabgacha bo‘lgan davr – 7 yoshgacha

4. Maktab davri [1.69-b].

A.N.Leontevning uchbu ajratgan nutq rivojlanish shakllari bola hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bola rivojlanishining har bir davrida nutqda turli o‘zgarishlar kuzatiladi.

Shuni takidlash kerakki, ko‘pgina xilma xil tadqiqotchilar bola lug‘at boyligining o‘sib borishida turli raqamli malumotlarni ko‘rsatadilar. Eng keng tarqalgan ma’lumotga ko‘ra, bolalarning lug‘at boyligini bog‘chagacha bo‘lgan davrda o‘sib borishi quyidagi raqamlarni ko‘rsatadi:

a) 1 yoshu 6 oyda – 10-15 ta so‘z

b) 2-yilning oxiriga kelib – 300 ta so‘z

c) 3 yoshga borganda – 1000 ta so‘z

d) 4-6 yoshida uning aktiv lug‘ati – 3000-4000 tagacha yetadi.[1.75-76-b].

Albatta bolaning yosh doirasi oshgani sari uning lug‘at boyligi ham oshib boraveradi. Lug‘at boyligining o‘sishi esa o‘z o‘zidan bolalarning tafakkur darajasini shakllanishiga olib keladi. Yuqorida keltirilgan nutq shakllanishi normal bolada kechuvchi nutqiy holat hisoblanadi. Ammo hamma vaqt ham nutq bir tekkisda rivojlanavermaydi. Bolaning homila paytida olgan travmalari va tug‘ruq paytidagi jarohatlar hamda tu‘g‘ruqdan keyin bo‘lgan hayoti davomidagi ijtimoiylashuv jarayonlarida nutq jihatdan orqada qolish holatlari boada kuzatilib mumkin. Bu esa o‘z navbatida bolada yengil va og‘ir bo‘lgan nutq nuqsonlarini kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Hamma nutq nuqsonlari kelib chiqishiga ko‘ra 2 guruhga bo‘linadi:

1) Organik harakterdagi nutq buzilishlari

2) Funksional harakterdagi nutq buzilishlari.

Organik nutq buzilishlari o‘z navbatida ma’lum joyning zararlanishiga ko‘ra markaziy va periferik harakterda bo‘ladi.

Funksional buzilishlar – bunda nutq jarayonida ishtirok etadigon jarayonlar tuzilishida hech qanday o‘zgarishlar bo‘lmaydi [2.21-22-b].

Nutqning izdan chiqishi o'z navbatida Bolani atrof muhit bilan qisman informatsiyani uzilib qolishi uchun zamin yaratishi mumkin.

Nutqiy nuqsonlarning og'ir yoki yegil darajalariga qarab bolaning holati aniqlanadi. Nutq nuqsonlarining eng og'ir darajalari dizartriya, rinolaliya, duduqlanish.

Dizartriya – nutq apparati innervatsiyasining organic buzilishi sababli nutqning talaffuz buzilishidir [1.143-b].

Rinolaliya (grekcha so'zdan olingan bo'lib rhinos- burun, lalia- nutq) nutq aparatining anatomic va fiziologik kamchiliklari sababli ovoz tembri va tovushlar talaffuzidagi buzilishidir[1.108-b].

Rinolaliyada asosan bolada burun undoshlari bilan bog'liq muammolar kuzatiladi. Dimog'ida yoki manqalanib gapirish holati yuz beradi.

Duduqlanish – bu nutq aparati muskullarining tortishi natijasida nutqning sur'at ohangini buzilishidir.[1.21-22-b].

Duduqlanishda bir nechta harf va so'zlarni muskullarini tortishishi natijasida qayta qayta takrorlashi kuzatiladi.

Yuqoridagi nutq nuqsonlari eng og'ir nutq nuqsonlari hisoblanadi.

Ushbu nuqsonga ega bo'lgan bolalar bilan ishlashda bir qancha logopedik ishlarni amalga oshirish natijasida bu nuqsonlarni qisman yoki butunlay bartaraf etish mumkin, ya'ni kamchilikning og'ir yoki yengillik darajasiga qarab ularni bartaraf etish.

Nutq buzilisharini bartaraf etishda shunday tushunchalar qo'llaniladi: logopedic ta'sir etish, tuzatish, o'rnini to'ldirish, rivojlantirish, o'qitish, tarbiyalash, qayta tarbiyalash, tuzatish tarbiyalash orqali o'qitish va boshqaqalar[3.19-b].

Haqiqatdan ham bolalar bilan ishlashda yuqoridagi ishlarni barchasi amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Bolalar bilan ishlashda yangicha metod va vositalardan foydalangan holda yondashish talab etiladi.

Hozirda logopedik amaliyotda qo'llanilib kelayotgan quyidagi noananaviy pedagogic texnologiyalarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

1. Neyopsixologik texnologiyalar.
2. Kineziterapiya.

3. Hidrogimnastika.
4. Logopedik uqalash.
5. Sudjok terapiya.
6. G.V.Strelinikova gimnastikasi.
7. Frollovning nafas olish trinajyori.
8. Fitoterapiya.
9. Artikulatsion terapiya.
10. Aromaterapiya.
11. Musiqa terapiyasi.
12. Xromoterapiya.
13. Litoterapiya.
14. Immogoterapiya.
15. Ertak terapiya.
16. Qum terapiya [4.90-b].

Yuqoridagilarni barchasi bola nutqining rivojlanishida va unda faol nutqni shakllantirishda qo‘l keladi. Shu bilan birgalikda bola bilan ishlashda nutqini shakllantirish uchun turli xil rasmiy materiallardan, multimedialardan va O.A.V lardan to‘g‘ri foydalanish ham o‘z samarasini berib kelmoqda.

Nutqni rivojlanishida artikulatsion aparatning ham o‘rni beqiyosdir. Barchamizga ma‘lumki, artikulatsion a‘zosi bu – tildir. Til barcha tovushlarni chiqarishga yordam beruvchi asosiy vositalardan biridir. Shuning uchun logoped bola bilan ishlashda uning artikulatsiyasi bilan ko‘proq mashg‘ulotlarni olib borishi kerak bo‘ladi.

Shunday ekan ota onalar va pedagoglar bola rivojlanishida unda kechadigon turli o‘zgarishlarga e‘tiborliroq bo‘lishimiz va noto‘g‘ri nutq shakllanayotganini ozgina bo‘lsa ham payqashimiz kerak. Zero mana shu yoshlar bizning kelajak uchun o‘z ongi, tafakkuri va ravon nutqi ila butun dunyoni zabt etishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Y.Ayupova, Logopediya. O‘zb Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti. Toshkent-2007.
2. L.R.Mo‘minova , Rivojlanishida murakkab nuqsoni bo‘lgan bolalarni psixologik – pedagogic tasnifi. “Fan va texnologiya” nashriyoti , Toshkent – 2016.
3. T.B.Filicheva, Logopediya , O‘qituvchi nashriyoti, Toshkent-1993.
4. L.R.Mo‘minova. Nutq kamchiliklari : bartaraf etish texnologiyalar. Toshkent-2017.